

BOLALARDA NUTQ JARAYONIDAGI O'ZGARISHLAR

Mahmudjonova Farzona Azizbek qizi
 Andijon davlat chet tillari instituti talabasi

Kabulova U.S.
 Ilmiy maslahatchi:

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarda nutq jarayonida kuzatiladigan o'zgarishlar va ularning rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Bola tug'ilganidan boshlab nutq rivojlanishining turli bosqichlari, uning psixologik, fiziologik va ijtimoiy omillar bilan bog'liqligi yoritiladi. Maqolada bolalarda nutq rivojlanishiga ta'sir etuvchi faktorlar, so'z boyligi va grammatika rivojlanishi, shuningdek, nutqdagi o'zgarishlarning psixologik xususiyatlari ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: nutq jarayoni, nutq rivojlanishi, bolalar psixologiyasi, so'z boyligi, grammatik rivojlanish, nutqda o'zgarishlar, muloqot va pedagogika, ota-onalar va bolalar muloqoti, tillarni o'rganish, psixolingvistika.

Аннотация: В статье анализируются изменения, наблюдаемые в речевом процессе детей и на этапах их развития. Освещены различные этапы речевого развития с рождения ребенка, его связь с психологическими, физиологическими и социальными факторами. В статье рассматриваются факторы, влияющие на развитие речи у детей, развитие словарного запаса и грамматики, а также психологические особенности изменений речи.

Ключевые слова: речевой процесс, речевое развитие, детская психология, словарный запас, грамматическое развитие, изменения в речи, общение и педагогика, детско-родительское общение, изучение языка, психоллингвистика.

Abstract: This article analyzes the changes observed in children's speech process and their developmental stages. Various stages of speech development from the birth of a child, its connection with psychological, physiological and social factors are covered. The article examines the factors affecting the development of speech in children, the development of vocabulary and grammar, as well as the psychological characteristics of changes in speech.

Keywords: speech process, speech development, child psychology, vocabulary, grammatical development, changes in speech, communication and pedagogy, parent-child communication, language learning, psycholinguistics.

Nutq rivojlanishi – insonning intellektual va psixologik rivojlanishining ajralmas qismi hisoblanadi. Bola tug'ilganidan boshlab, nutq jarayoni bosqichma-bosqich rivojlanadi va uning rivojlanishi nafaqat tilda so'zlashish imkoniyatini, balki mantiqiy fikrlash, idrok va ijtimoiy muloqotni ham ta'minlaydi. Nutq rivojlanishining turli bosqichlari bolaning yoshiga, atrof-muhitga, psixologik va fiziologik holatiga bog'liq. Ushbu maqolada bolalarda nutq jarayonida kuzatiladigan o'zgarishlar va bu o'zgarishlarning asosiy jihatlari. Bola tug'ilganidan boshlab, nutq jarayoni doimiy o'zgarib boradi. Birinchi 1-2

yil davomida bola faqat ovozlarni chiqarishga qodir bo'ladir, ammo bu ovozlarni tilga oid emas, balki biologik jihatdan tabiiy reflekslarning natijasidir. Ushbu davrda bola dunyoni tinglab, atrofdagi ovozlarni o'rganadi, so'ngra ular bilan birlashib, birinchi so'zlarini aytadi [1].

Birinchi so'zlar, odatda, ota-ona yoki yaqinlar tomonidan ishlatiladigan so'zlar bo'ladir. Ushbu davrda bola nutqning asosiy qoidalarini o'rganadi. 2-3 yoshda, bola qisqa jummalarni tuzishga va mavhum tushunchalarni anglashga boshlaydi. Bu davrda tilni o'rganish jarayoni eng faol bo'ladir. 4-5 yoshlarda esa bola nutq qoidalarini mustahkam o'zlashtiradi va murakkab jumlar qurishda malakali bo'ladir. Bolalarda nutq rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar ko'p. Ularning eng asosiysi — atrof-muhit va ota-onaning bola bilan muloqoti. Ota-onaning bola bilan doimiy muloqoti, so'zlashuv ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, bolada til rivojlanishining tezligi genetik faktorlar, psixologik va jismoniy holatga bog'liq bo'ladir. Agar bolada muloqotda qiyinchiliklar yoki kechikishlar kuzatilsa, bu psixologik yoki tibbiy sabablar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, turli kasalliklar yoki stress holatlari bola nutqining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin[2].

Bolalar nutqida kuzatiladigan o'zgarishlar psixologik jihatdan ham muhimdir. Masalan, bolada 3 yoshdan keyin tilli idrokning rivojlanishi, so'z boyligining oshishi, grammatik tuzilmalarni o'zlashtirish kabi o'zgarishlar psixologik o'sishni ham anglatadi. Nutq rivojlanishi bilan bolada o'z-o'zini anglash, o'z fikrini ifodalash va boshqalar bilan muloqotda bo'lishda ishonchning ortishi kuzatiladi. Shuningdek, bolalar nutqida grammatik va sintaktik xatolar ham uchraydi. Bu jarayonning tabiiy bosqichlaridan biri bo'lib, bola o'z nutqini to'g'rilash va to'g'ri ifodalash uchun vaqt talab etadi[3].

Bolalarda nutq jarayonidagi o'zgarishlarni boshqarish, ya'ni til rivojlanishida kechikishlarni oldini olish uchun ota-onalar va pedagoglar maxsus mashqlar, o'yinlar va qiziqarli faoliyatlar yordamida bolalar bilan doimiy muloqotda bo'lishi lozim. Bolalar uchun mo'ljallangan kitoblar va multimedia vositalari, shu jumladan, nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi dasturlar yordamida bolalar o'zlarining so'zlashuv ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin [4]. Bolalarda nutq jarayonidagi o'zgarishlar inson rivojlanishining ajralmas qismidir. Har bir yosh bosqichida bola nutqni o'zlashtirishda yangi bosqichlarga o'tadi, bu esa uning aqliy va psixologik rivojlanishiga ta'sir qiladi. Nutq rivojlanishidagi o'zgarishlarni boshqarish va bolalar bilan faol muloqotda bo'lish ularning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga katta yordam beradi [5].

Nevrologik belgida bolada majud harakatlar hamda nutq ifodalash sistemasi o'zaro nomuvofiq holda mavjud bo'ladir, ya'ni bolaning tez-tez yiqilib tushishi, kiyimlarining tugmasini qadashida muammolar, jumboq yechishda kamchilikka duch kelish, kichik harakatlarni amalga oshirishda qiyinchiliklarga duch kelish alaliyaning nevrologik belgisi hisoblanadi. Alaliyaning psixologik belgisi esa bolaning xulq-atvori hamda uning nutqiy muloqotining o'zaro bog'liqligi asosida sodir bo'ladir. Bunda chaqaloq haddan tashqari faol bo'ladir, ayrim belgilarni qiyinchilik bilan o'zlashtiradi, ishlash jarayonidagi muammolar hamma bolaning qat'iyatlilik holatida kamchilik mavjud bo'ladir. Bolada xotiraning pasayishi va diqqatning yetarli emasligi ham psixologik belgi sifatida qayd

etiladi. Nutqiy kamchilikda sa bola tovushlarni juda muammoli tarzda talaffuz qiladi, ayniqsa, so'zlarning buzib talaffuz giladi, so'zning ayrim bo'g'inlarni tushirib qoldiradi oki so'zga ortiacha bo'g'in qo'shish holatlari kuzatiladi. Yoki söz tarkibidagi ayrim bo'g'inlar boshqa o'xshash bo'g'inlar bilan ham almashtirish holatlari ham uchrab turadi [6].

Biologik buzilish bevosita bola organizmidagi kasalliklar o'laroq mavjud boladi ya'ni miyaning qaysidir qismida mavjud nuqson tufayli bolaning nutqiy buzilishi namoyon boladi. Bolalardagi nutqiy buzilishiga misol sifatida alaliya kasalligini keltirish mumkin. Alaliya patologik holat hisoblanib, u ikki xil ko'rinishda namoyon bo'ladi ya'ni birinchi holatda nuta nuqsonli holatda mavjud bo'ladi, ikkinchi holatda esa butkul nutqning mavjud bo'lmasligi bilan aks etadi. Alaliya kasalligi bolaning homila shaklida ekanligida yoki chaqaloq tug'ilishining dastlabki yillaridanoq miyaning ayrim qismlaridagi mavjud shikastlanishlar tufayli yuzaga keladi. Alaliya kasalligi maktab yoshidagi har yuzinchi bola kasallanadi. Alaliya nutqiy buzilish kasalligini vujudga keltiruvchi qator omillar mavjud bo'lib, ularga misol sifatida quyidagilarni keltirish mumkin [7].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xo'jayev N. Bolalar nutqining rivojlanishiga oid tadqiqotlar. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2015.
2. Karimov B. Psixolingvistika va nutq rivojlanishi. –Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2018.
3. Rasulov R. Bola psixologiyasida nutq jarayonining o'rni. –Toshkent: Sharq nashriyoti, 2017.
4. Zokirov J. Bola nutqini o'rgatish metodikasi. – Toshkent: O'zbekiston pedagogika universiteti nashriyoti, 2020.
5. Shodiev T. Bolalarda til va nutq rivojlanishining pedagogik asoslari. –Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 2019.
6. O'ralova S. Nutq rivojlanishining psixologik tomonlari. –Toshkent: O'zbekiston psixologiya ilmiy-tadqiqot instituti, 2021.
7. Baskakov N.A.va boshqalar. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: O'qituvchi, 1979.